


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

 «TASDIQLAYMAN»
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov

7-oktabr 2024-yil

**10.00.05 –“Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2024-yil 7-oktabrdagi 2-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: f.f.d., prof. Sh. Sirojiddinov
f.f.d., prof. B.Abdushukurov
PhD, dotsent v.b. M.Xolmuradova

KIRISH

Sharq mamlakatlari tarixi, rivojlanish bosqichlari, hozirgi kunda ushbu davlatlarda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ularning O'zbekiston Respublikasi bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganish hozirgi kundagi ta'lim yo'nalishining dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur dastur "Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan.

Dastur ikki yo'nalishni qamrab oladi: Osiyo va Afrika xalqlari tillari hamda Osiyo va Afrika xalqlarining adabiyoti.

Tilshunoslik yo'nalishida talabgorning Sharq tillarining tarixiy taraqqiyoti, hozirgi sharq tillarini tadqiq etish bilan bog'liq masalalarni bilishi ko'zda tutiladi.

Osiyo va Afrika xalqlari bo'yicha talabgor quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lmog'i kerak:

- o'rganilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari;
- o'rganilayotgan sharq tilining yozma, adabiy, og'zaki shakllari;
- o'rganilayotgan tilning fonetik tizimi va fonologik xususiyatlari, yozuv tizimi va tarixiy bosqichlari, imlo qoidalari, morfologiya va sintaksisi hamda ularni o'rganishdagi mavjud muammolar;
- o'rganilayotgan tildagi so'z yasash usullari va ularning o'rganilganlik darajasi;
- o'rganilayotgan tilning leksikologiyasi va ularning boshqa tilshunoslik yo'nalishlari bilan aloqasi;
- o'rganilayotgan til bo'yicha tilshunoslik terminologiyasini egallash va ilmiy adabiyotlarni o'qib, tarjima qilish malakasiga ega bo'lish.

Adabiyotshunoslik yo'nalishi bo'yicha kirish imtihoni dasturida sharq xalqlari adabiyotlarini o'rganish borasidagi mamlakat adabiyotining xronologik tarzda rivojlanish tarixi, bosqichlari, har bir bosqichning umumiy adabiy tavsifi, bu davr ijodkorlarining ijodi, adabiy merosi va bu merosning mazmun-mohiyati haqida bilimga ega ekanligi inobatga olinadi. Unda sharq xalqlari (arab, fors, va turk) adabiyotining qadimgi davrdan XXI asrning boshlarigacha bo'lgan rivojlanish tarixini to'liq aks ettirgan mavzular qamrab olingan.

Dasturda sharq xalqlari adabiyoti rivojiga asos bo'lgan manbalar, adabiyot taraqqiyoti davomida shakllangan turli yo'nalish va oqimlar, turli janrlar, sharq xalqlari adabiyotining poetika masalalari, ijodiy metodlar masalalariga mustaqil fikr-mulohaza bildira olishi ko'zda tutiladi.

OSIYO VA AFRIKA XALQLARI TILLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY MASALALARI

I. Tilshunoslikning umumnazariy masalalari

Sharq tillarini o'rganish bo'yicha tilshunoslikning umumiy muammolari. Zamonaviy tilshunoslik maktablari. Tilshunoslikning umumiy muammolari. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Ilmiy tadqiqot tamoyillari. Til universiyalari. Dunyo tillari va ularni tasniflash masalasi.

O'rganilayotgan tilning jahon tillari orasida tutgan o'rni va tillar oilasiga mansubligi. Tilning rivojlanish bosqichlari. Qadimiy davri va undagi asosiy yozma manbalar. O'rta davr va uning yozma manbalari. Hozirgi zamon adabiy tili, yuzaga kelishi, shakllanish bosqichlari, qardosh tillar va qo'shni tillar bilan o'zaro munosabatlari; globallashuv jarayoni va yetakchi tillar bilan o'zaro munosabati. Til va uning funksiyasi bo'yicha nazariy qarashlar. Tilning ilmiy va ijtimoiy vosita sifatida rivojlanish istiqbollari. Tildagi mavjud ilmiy muammolarni mamlakatda va mamlakatdan tashqarida o'rganilganlik darajasi. Mamlakatdagi milliy tilshunoslik nazariyasining jahondagi yetakchi tilshunoslik ilmiy maktablariga munosabati va takomil darajasi. Tillarni qiyosiy darajada o'rganish. Kognitiv tilshunoslik. Lingvokulturologiya. Lingvopoetika. Mamlakat tilshunoslarining yaratgan asosiy ilmiy adabiyotlari va ularning yo'nalishlari: grammatika nazariyasi, leksikologiya, so'z yasalishi, semasiologiya, fonetika va fonologiya, uslubshunoslik va leksikografiya bo'yicha e'lon qilingan qilingan asosiy adabiyotlar.

Til tarixi masalalari

Sharq tilining tarixi. Kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari. Tilning nutq tovushlari tizimining tarixiy taraqqiyoti. Yozuv tarixi masalalari. Yozma yodgorliklar tilini o'rganishning nazariy masalalari. Sharq yozma yodgorliklarini fonetik, leksik-semantik, grammatik jihatdan o'rganish. Til tarixini diaxronik aspektda o'rganish. Tarixiy leksika va uning takomili. Tarixiy leksikografiya masalasi. Tilning morfologik tizimi va uning tarixiy taraqqiyoti. Grammatik kategoriyalar va ularning o'ziga xosliklari. Yozma manbalar va ularning tili masalasi. Sintaksis tarixi. Tilning siktaktik qurilishi va uning o'zgarib borishi. Yozma yodgorliklarda uslub masalasi: badiiy uslub va uning tarixiy takomili, rasmiy uslub va uning kelib chiqishi, tarixiy takomili, ilmiy uslub va uning tarixi.

Hozirgi sharq tillarini tadqiq etishning nazariy masalalari

Fonetika va fonologiya tizimi va uning ilmiy o'rganilishi.

O'rganilayotgan tilning fonetik tizimi va uning fonologik asoslarga muvofiqligi. Fonetik tizim va fonemalar tasnifi. Tovush va fonema. Fonema va harf. Unli fonemalar va ularning tasnifi. O'rganilayotgan til vokalizmining boshqa tillar bilan o'xshashligi va farqi.

Undosh fonemalarning tizimi va ularning tasnifi. O'rganilayotgan til konsonantlarining boshqa tillar bilan o'xshashligi va farqi.

O'rganilayotgan til bo'g'inlarining tuzilishi. Tildagi so'z va jumla urg'usi qonuniyatlari. Gapdagi mantiqiy urg'u va intonatsiya xususiyatlari. Fonologik transkripsiya tizimi va uning xalqaro transkripsiya tizimiga mosligi.

Yozuv

O'rganilayotgan til yozuvi haqida umumiy ma'lumotlar. Tilning alifbo tizimi. Fonemalarning grafik ifodalanishi va ligaturalar (ierogliflar). Yozuvdagi grafik belgisi bo'lmagan fonemalar va ularning ifodalanish usullari. Yozuv turlari. Tilning raqamlari va ularning belgilar tizimi. Imlo qoidalari va tinish belgilari.

Grammatika

Grammatikaning o'rganish mavzusi. Tilning grammatik qurilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Morfologiya va sintaksisning sharq tillari bo'yicha o'zaro munosabati.

Morfologiya. Leksik-semantik va grammatik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar.

So'zlarni turkumlash prinsplari. Mustaqil so'z turkumlari va ularning tasnifi bo'yicha yondashuvlar. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish turkumlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularga xos grammatik kategoriyalar tadqiqi.

Yordamchi so'z turkumlari, ularni guruhlashtirish. Modal so'zlar, taqlid so'zlar va undov so'zlarning o'ziga xosliklari.

Sintaksis

Sintaktik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar. So'z birikmasi va gap. So'z birikmasining asosiy turlari: moslashuv, bitishuv, boshqaruv. So'z birikmalari va turg'un birikmalar.

Sodda va qo'shma gaplar.

Sodda gaplarning turlari: yig'iq va yoyiq sodda gaplar. Shaxssiz, atov va egasi tushirib qoldirilgan gaplar. Gap bo'laklari. Gaplarning uyushiq bo'laklari. Ajratilgan izoh bo'laklar. Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaytdigan bo'laklar, ular bilan tuzilgan gaplar.

Qo'shma gaplar. Teng bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar. Qo'shma gap bo'laklarining o'zaro bog'lanish usullari.

Ergash gapli qo'shma gaplar. Ularning tuzilishi, turlari, gap bo'laklarining o'rni. Murakkab qo'shma gaplar va ularning turlari. Periodlar. Muallif gapi, ko'chirma va o'zlashtirma gap.

Gapning aktual bo'linishi. Tema-rematik munosabatlar paradigmasi.

Presuppozitsiya. Gaplarning shakl va ma'no bo'yicha assimetriyasi.

Leksikologiya va frazeologiya. Sharq tili ilmida leksikologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, o'ziga xosliklari. Sharq tili ilmida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari.

Tilning lugʻat tarkibi va uning tadqiqi. Tub va oʻzlashma soʻzlar. Soʻzlarning oʻzaro sintagmatik va pragmatic munosabati. Til birliklarining shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari. Til lugʻat tarkibining oʻzgarib borishi.

Soʻz yasalishi. Soʻz yasash usullari. Affiksatsiya, kompozitsiya, leksikalizatsiya.

Uslubshunoslik. Sharq tili ilmida stilistika masalasining yoritilishi. Nutqning funksional uslublari va ularning tadqiqi. Adabiy va ogʻzaki nutq uslubi. Ogʻzaki nutqning fonetik, morfologik va sintaktik oʻziga xosliklari.

Matn lingvistikasi. Sharq tili ilmida matn lingvistikasining oʻrni. Matnni oʻrganishda umumiy va xususiy yondashuvlar.

II. Sharq xalqlari adabiyoti

Adabiyotda ramz, shakl va mazmun. Badiiy matn va badiiy uslub. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar.

Adabiy jarayonga yondashuv turlari. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar, yoʻnalishlar. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari. Yangi davr sharq adabiyotida romantizm, modernism, postmodernism tamoyillari. Sharq adabiyoti realism masalasi.

Nazariy poetika. Sheʼriyatda vazn, ritm, ohangning oʻrni. Xalq ogʻzaki ijodida mazmun va ohang uygʻunligi. Soʻz sanʼatida tasviriylkni taʼminlovchi omillar. Soʻz sanʼatida metafora va tashbehning ahamiyati.

Badiiy nutq soʻz sanʼatining asosi sifatida. Nasr va nazmda soʻz va nutq. Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula: adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi. Kompozitsiya va component. Personaj, xarakter, tip.

Badiiy asar turlari. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi. Epik janrlar. Epos va roman. Sharq adabiyotida kichik epic janrlar va epik qahramon masalasi. Qadim va oʻrta asrlar sharq adabiyotida drama. Mumtoz sharq adabiyotida dramatic janrlar. Dramatik asarda syujet va kompozitsiyaning oʻziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda monolog va dialog.

Lirik sheʼriyat va nasriy lirika. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang. Lirikada shakl va mazmun mutanosibli. Lirik asarda syujet va kompozitsiya. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar. Xalq ogʻzaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga taʼsiri. Yangi davr sheʼriy janrlari. Nasriy lirika. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif.

Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi oʻzgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari. Yangi davrda falsafiy -estetik oqimlarning sharq xalqlari adabiyotiga taʼsiri.

ARAB ADABIYOTI

Qadimiy va mumtoz davr arab adabiyoti. Arab adabiyotini davrlashtirish masalalari. Qadimgi arab qasidasi. Qurʼon va hadislarning arab adabiyotiga taʼsiri. Ilk islom davri adabiyoti. Ummaviylar davri adabiyoti. Mamluklar davri adabiyoti. Birinchi ilmiy-adabiy ensiklopediyalar.

Yangi davr va zamonaviy arab adabiyoti. Ma'rifatparvarlar davri adabiyoti. Yangi arab adabiyotida tarixiy roman janri. Yangi arab adabiyotida hikoya janri. Misr va Iroqda "yangi mumtoz she'riyat" yo'nalishi. Birinchi arab realistik romanlar "Zaynab" (M.Haykal), "Ayyam" (T.Husayn). Misrlik mashhur arab hikoyanavislari. Mustaqillik yillarida arab mamlakatlarida adabiyot.

"Nobel" mukofoti sovrindori Nagib Mahfuzning adabiy merosi. Arab "yangi roman" oqimida modernism va postmodernism unsurlari. Tunisda arab va fransuz adabiyoti namoyandalari ijodi. Marokash adabiyoti rivojida xalq og'zaki ijodining o'rni. Ba'zi arab davlatlarida jadallashgan adabiy jarayon.

ERON ADABIYOTI

Qadim va mumtoz davr fors adabiyoti (X-XV asrlar)

Eron adabiyotini davrlashtirish masalalari. Islomgacha eroniy tillardagi adabiyot va uning o'ziga xos jihatlari. Qadimgi va ilk o'rta asrlar mintaqah ma'naviyati rivojida asosiy bosqichlar va ularda eroniy tillarda yaratilgan asosiy adabiy yodgorliklar. "Avesto" kitobi va asotir tafakkur.

Mintaqa adabiyoti rivojining birinchi davri. Fors tilida mumtoz she'riyatning shakllanishi va ilk rivoji. Abu Abdulloh Rudakiy qasidalar. "Dunyoviy adabiyot" tushunchasi. XI asr fors tilidagi saroy she'riyati. Tasavvuf adabiyoti va Abdulloh Ansoriy badiiy ijodi. Firdavsiy va uning "Shohnoma" asari, "Shohnoma" yozish an'anasi. Shohnoma" tarkibidagi ishqi dostonlar. Shohnoma"da Rustam obrazi.

Islom mintaqah adabiyoti rivojining ikkinchi davri. Irfoniy-tasavvufiy adabiyotning yuksalishi. Umar Xayyom va G'azzoliy ijodi. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"ning yaratilishi va mohiyati. Fariddin Attor va uning "Mantiq ut tayr" dostoni g'oyasi. Jaloliddin Rumiy "masnaviyi ma'naviy"ning bosh g'oyasi. Sa'diy Sheroziy ijodi. Fors mumtoz adabiyotida g'azal janrining takomili.

Islom mintaqah adabiyoti rivojining uchinchi davri. Amir Xusrav Dehlaviy ijodi. Hofiz g'azallari. Abdurahmon Jomiy ijodi. Fors adabiyotini o'rganish muammolari.

Yangi davr va zamonaviy Eron adabiyoti. XVI-XVII asrlar manbalari: tarixiy asarlar, tazkira va risolalar. XVI-XVII asrlar adabiyotida asosiy janrlar. Forsiy adabiyotda hind uslubi Mirza Abduqodir Bedil ijodi. Isfahon, Sheroz, Tehron adabiy markazlarida ma'rifatchilik harakati.

Xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalar. Eron adabiyotiga Yevropa madaniyatining ta'siri. Eronda matbuot rivoji. XX asr birinchi yarmi nasr va she'riyatda an'ana va yangiliklar. Eron adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchilik. XX asr 70-80-yillar Eron adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

TURK ADABIYOTI

Qadimgi va mumtoz davr turk adabiyoti.

Turk adabiyotini davrlashtirish masalalari. Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodi. Turk adabiyotida lola davri. O'rta asr turk adabiyotida satira. Yangi va zamonaviy turk adabiyoti.

Tilshunoslik bo'yicha savollar:

1. Qadimgi turkiy obidalar.
2. Qadimgi turkiy yozuvlar xususiyatlari
3. Qadimgi turkiy til fonetikasi.
4. Qardosh turkiy tillar taraqqiyotida qadimgi turkiy til leksikasining oʻrni
5. Qadimgi turkiy til soʻz boyligida oʻzlashmalar
6. Qadimgi turkiy tilda omonim va sinonim, antonimlar
7. Uygʻur yozuvi
8. Qadimgi turkiy til morfologiyasi. Ot soʻz turkumi.
9. Qadimgi turkiy tilda kelishiklar.
10. Qadimgi turkiy tilda sifatning morfologik xususiyatlari.
11. Qadimgi turkiy tilda qarindoshlik tushunchasini bildiruvchi terminlar
Oʻzbek xalqi va tilining nomlanish tarixi
12. Qadimgi turkiy til sintaksisi.
13. Qadimgi turkiy tilda soʻz birikmasi
14. Ilk va oʻrta asrlarda Markaziy Osiyodagi til vaziyati
15. Oʻzbek tilining tarixiy ildizlari
16. Eski turkiy til
17. Eski turkiy tildagi oʻzlashma qatlam.
18. Oʻzbek adabiy tilining XIV asrdagi taraqqiyoti
19. Eski oʻzbek adabiy tili rivojida Navoiygacha ijod qilgan turkiygoʻy
shoirning xizmatlari
20. “Qutadgʻu bilig” va “Hibatul-haqoyiq” dostonlarining til xususiyatlari
21. Oʻzbek atamasi
22. Turk, chigʻatoy, sart, oʻzbek atamalarining qoʻllanilish tarixi va ilmiy
asoslanishi
23. Mahmud Koshgʻariy – turkiy tillarni qiyosiy oʻrganish metodining asoschisi
24. Arab, fors-tojik va rus tillarining oʻzbek tiliga taʼsiri masalasi.
25. Oʻzbek tili leksikasida qadimgi turkiy tilga xos unsurlarning qoʻllanilishi.
26. “Oʻguznoma” asarining til xususiyatlari
27. “Qisasi Rabgʻuziy” asarining til xususiyatlari.
28. Oʻzbek tili tarixini davrlashtirish
29. Adabiy til uslublari
30. Zamonaviy tilshunoslik maktablari.
31. Tilshunoslikning umumiy muammolari.
32. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari
33. Dunyo tillari va ularni tasniflash masalasi.
34. Tilning rivojlanish bosqichlari.
35. Hozirgi zamon adabiy tili, yuzaga kelishi, shakllanish bosqichlari, qardosh
tillar va qoʻshni tillar bilan oʻzaro munosabatlari; globallashuv jarayoni va
yetakchi tillar bilan oʻzaro munosabati
36. Kognitiv tilshunoslik.
37. Lingvokulturologiya. Lingvopoetika.

38. Hozirgi o‘zbek (turk, arab, fors) adabiy tili fonetikasi.
39. Hozirgi o‘zbek (turk, arab, fors) adabiy tili morfologiyasi.
40. Hozirgi o‘zbek (turk, arab, fors) adabiy tili grammatikasi.
41. Hozirgi o‘zbek (turk, arab, fors) adabiy tili leksikasi.
42. Stilistika. Nutq uslublari.
43. Til tarixini diaxronik aspektda o‘rganish.
44. Matn lingvistikasi. Sharq tili ilmida matn lingvistikasining o‘rni. Matnning o‘rganishida umumiy va xususiy yondashuvlar.
 45. Sodda gaplarning turlari: yig‘iq va yoyiq sodda gaplar.
 46. Shaxssiz, atov va egasi tushirib qoldirilgan gaplar.
 47. Gap bo‘laklari.
 48. Gaplarning uyushiq bo‘laklari.
 49. Ajratilgan izoh bo‘laklar.
 50. Gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaytdigan bo‘laklar, ular bilan tuzilgan gaplar.
 51. Qo‘shma gaplar. Teng bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar. Qo‘shma gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘lanish usullari.
 52. Ergash gapli qo‘shma gaplar. Ularning tuzilishi, turlari, gap bo‘laklarining o‘rni. Murakkab qo‘shma gaplar va ularning turlari. Periodlar. Muallif gapi, ko‘chirma va o‘zlashtirma gap.
 53. Gapning aktual bo‘linishi. Tema-rematik munosabatlar paradigmasi.
 54. Presuppozitsiya. Gaplarning shakl va ma‘no bo‘yicha assimetriyasi.
 55. Leksikologiya va frazeologiya. Sharq tili ilmida leksikologiya bo‘yicha tadqiqotlar va ularning yo‘nalishlari, o‘ziga xosliklari. Sharq tili ilmida frazeologiya bo‘yicha tadqiqotlar va ularning yo‘nalishlari.
 56. Tilshunoslik maktablari.
 57. Qadimgi hind tilshunosligi.
 58. Qadimgi Yunon tilshunosligi.
 59. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik
 60. Ferdinand de Sossyurning struktur tilshunoslik shakllanishidagi o‘rni.
 61. Vilgelm fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik.
 62. Praga strukturalizmi, Kopenhagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi.
 63. Lisoniy paradigmalari.
 65. O‘zbekistonda tililmining rivojlanishi.
 66. Panini grammatikasida hind tili sathlarining aks etishi.
 67. Til sathlari va sathlararo munosabat.
 68. Tilning sinxron aspektda o‘rganilishi
 69. Lingvistik tahlil metodlari.
 70. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari.

Adabiyotshunoslik bo‘yicha savollar:

1. Adabiyotda ramz, shakl va mazmun.
2. Badiiy matn va badiiy uslub.
3. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat.

4. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar.
5. Adabiy jarayonga yondashuv turlari.
6. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar, yoʻnalishlar.
7. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi.
8. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari.
9. Yangi davr sharq adabiyotida romantizm, modernism, postmodernism tamoyillari.
10. Sharq adabiyoti realism masalasi.
11. Nazariy poetika. Sheʼriyatda vazn, ritm, ohangning oʻrni.
12. Xalq ogʻzaki ijodida mazmun va ohang uygʻunligi.
13. Soʻz sanʼatida tasviriylilikni taʼminlovchi omillar.
14. Soʻz sanʼatida metafora va tashbehning ahamiyati.
15. Badiiy nutq soʻz sanʼatining asosi sifatida.
16. Nasr va nazmda soʻz va nutq.
17. Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi.
18. Badiiy asarda voqea qatlami.
19. Syujet va fabula: adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi.
20. Kompozitsiya va komponent.
21. Personaj, xarakter, tip.
22. Badiiy asar turlari.
23. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi.
24. Epik janrlar. Epos va roman.
25. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar va epik qahramon masalasi.
26. Qadim va oʻrta asrlar sharq adabiyotida drama. Mumtoz sharq adabiyotida dramatik janrlar.
27. Dramatik asarda syujet va kompozitsiyaning oʻziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda monolog va dialog.
28. Lirik sheʼriyat va nasriy lirika.
29. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang.
30. Lirikada shakl va mazmun mutanosibligi.
31. Lirik asarda syujet va kompozitsiya.
32. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar.
33. Xalq ogʻzaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga taʼsiri.
34. Yangi davr sheʼriy janrlari.
35. Nasriy lirika. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif.
36. Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar.
37. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi oʻzgarishlar va ularning tarixiy ijtimoiy omillari.
38. Yangi davrda falsafiy -estetik oqimlarning sharq xalqlari adabiyotiga taʼsiri.

Arab adabiyoti boʻyicha savollar:

1. Qadimiy va mumtoz davr arab adabiyoti.
2. Arab adabiyotini davrlashtirish masalalari.
3. Qadimgi arab qasidasi.
4. Qur'on va hadislarning arab adabiyotiga ta'siri.
5. Ilk islom davri adabiyoti.
6. Ummaviylar davri adabiyoti.
7. Mamluklar davri adabiyoti.
8. Birinchi ilmiy-adabiy ensiklopediyalar.
9. Yangi davr va zamonaviy arab adabiyoti.
10. Ma'rifatparvarlar davri adabiyoti.
11. Yangi arab adabiyotida tarixiy roman janri.
12. Yangi arab adabiyotida hikoya janri.
13. Misr va Iroqda "yangi mumtoz she'riyat" yo'nalishi.
14. Birinchi arab realistik romanlar "Zaynab" (M. Haykal), "Ayyam" (T. Husayn).
15. Misrlik mashhur arab hikoyanavislari.
16. Mustaqillik yillarida arab mamlakatlarida adabiyot.
17. "Nobel" mukofoti sovrindori Nagib Mahfuzning adabiy merosi.
18. Arab "yangi roman" oqimida modernizm va postmodernizm unsurlari.
19. Marokash adabiyoti rivojida xalq og'zaki ijodining o'rni.

Fors adabiyoti bo'yicha savollar:

1. Qadim va mumtoz davr fors adabiyoti (X-XV asrlar)
2. Eron adabiyotini davrlashtirish masalalari.
3. Islomgacha eroniy tillardagi adabiyot va uning o'ziga xos jihatlari.
4. Qadimgi va ilk o'rta asrlar mintaqah ma'naviyati rivojidadagi asosiy bosqichlar va ularda eroniy tillarda yaratilgan asosiy adabiy yodgorliklar.
5. "Avesto" kitobi va asotir tafakkur.
6. Mintaqa adabiyoti rivojining birinchi davri.
7. Fors tilida mumtoz she'riyatning shakllanishi va ilk rivoji.
8. Abu Abdulloh Rudakiy qasidalar.
9. "Dunyoviy adabiyot" tushunchasi.
10. XI asr fors tilidagi saroy she'riyati.
11. Tasavvuf adabiyoti va Abdulloh Ansoriy badiiy ijodi.
12. Firdavsiy va uning "Shohnoma" asari,
13. "Shohnoma" yozish an'anasi. Shohnoma" tarkibidagi ishqiy dostonlar. Shohnoma"da Rustam obrazi.
14. Islom mintaqah adabiyoti rivojining ikkinchi davri. Irfoniy-tasavvufiy adabiyotning yuksalishi.
15. Umar Xayyom va G'azzoliy ijodi.
16. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"ning yaratilishi va mohiyati.
17. Fariddidin Attor va uning "Mantiq ut tayr" dostoni g'oyasi.
18. Jaloliddin Rumiy "masnaviyi ma'naviy"ning bosh g'oyasi.
19. Sa'diy Sheroziy ijodi. Fors mumtoz adabiyotida g'azal janrining takomili.

20. Islom mintaqah adabiyoti rivojining uchinchi davri.
21. Amir Xusrav Dehlaviy ijodi.
22. Hofiz gʻazallari.
23. Abdurahmon Jomiy ijodi.
24. Fors adabiyotini oʻrganish muammolari.
25. Yangi davr va zamonaviy Eron adabiyoti.
26. XVI-XVII asrlar manbalari: tarixiy asarlar, tazkira va risolalar.
27. XVI-XVII asrlar adabiyotida asosiy janrlar.
28. Forsiy adabiyotda hind uslubi Mirza Abduqodir Bedil ijodi.
29. Isfahon, Sheroz, Tehron adabiy markazlarida maʼrifatchilik harakati.
30. Xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalar.
31. Eron adabiyotiga Yevropa madaniyatining taʼsiri. Eronda matbuot rivoji.
32. XX asr birinchi yarmi nasr va sheʼriyatda anʼana va yangiliklar.
33. Eron adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchilik.
34. XX asr 70-80-yillar Eron adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi ogʻzaki ravishda oʻtkazilishi belgilangan boʻlib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qoʻyiladigan talablar
86-100	<p>Qoʻyilgan savolga toʻliq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yoʻl qoʻyilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon yetilgan. Xulosani toʻgʻri shakllantirgan. Fikrlar yerkin bayon yetilgan.</p>
71-85	<p>Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.</p>
55-70	<p>Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.</p>

0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega yemas.
------	--

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016.–56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Конституция кунига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. Т.:Ўзбекистон, 2017. –48 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик– ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак.–Т.: Ўзбекистон, 2017.–104 б.
4. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2016 йил 13 майдаги “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4797 сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

ASOSIY ADABIYOTLAR

TILSHUNOSLIK BO'YICHA ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A Tilshunoslik nazariyasiga kirish. - Toshkent: Sharq. 2010. - I 76 b.
2. Jamolxonov H, Hozirgi o'zbek adabiy tili - Toshkent, 2008. - 1-kitob.-140 b
- 3 Irisqulov M.T Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. - 264 b
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent, 2007, - 146 b.
5. Turniyozov N. Tilshunoslikka, kirish (m a'ruzalar matni). - Samarqand, 2006. - 80 b.
6. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent: o'qituvchi, 1992. 36 b.

7. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent: Sharq, 2010.
8. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent, 1996.
9. Mahmudov N., Nurmonov A O'zbek tili nazariy grammatikasi. - Toshkent, 1995.
10. Mirtojiev M O'zbek tili fonetikasi. - Toshkent: Universitet, 1998 - 90 b
11. Ne'matov H O'zbek tili tarixiy fonetikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 96 b.
12. Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. - Т.: Фан, 2007. - 156 б.

ADABIYOTSHUNOSLIK BO'YICHA ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-t., - T.: Fan, 1978; 2-t. - T.: Fan, 1979.
2. Adabiy turlar va janrlar. - T.: Fan, 1991;
3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. - М.: Художественная литература, 1975.
4. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. - T.: Akademnashr, 2015.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2002.
6. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-jild. - T.: Mumtoz so'z, 2013.
7. Введение в литературоведение: Литературное произведение: основные понятия и термины / Под ред. Л.В.Чернец. - М.: Academia, 2000.
8. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. - T.: Adabiyot va san'at, 2015.
9. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - T., 2004.
10. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Sharq, 2008. 46. Sharq mumtoz poetikasi: Manba va talqinlar. 1-kitob. / Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi H. Boltaboev. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

Arab adabiyoti

1. Акбарова М. Очерки истории арабской литературы нового времени. - Т., 2008.
2. Акбарова М. Янги давр араб адабиёти. - Т., 2009.
3. Дербжалиев А. Арабоязычная литература Марокко. М., 1993.

4. Долинина А. Очерки истории арабской литературы нового времени.-М., 1968.
5. Кирпиченко В. Современная египетская проза. -М.,1986.
6. Пантучек С. Тунисская литература. -М., 1969.
7. Прожогина С. Литература Марокко и Туниса. -М., 1968.
8. Ходжаева Р. Янги давр араб адабиёти тарихида маърифатпарварлик жараёни. -Т., 1999.
9. Ходжаева Р.Янги давр араб адабиёти тарихи. -Т., 2004.
- 10.Ходжаева Р. Очерки развития египетской поэзии. -Т., 1985.

Eron adabiyoti

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. -Т., 2001.
2. Аттор Фаридиддин. Тазкират ул авлиё. -Т., 2013.
3. Фирдавсий Тусий . Шохнома. -Т., 1975-1977.
4. Низомий Ганжавий. Куллиёт-Душанбе, 1982-84
5. Румий Жалолмддин. Ичиндаги ичиндадир. -Т., 2001.
6. Румий Жалолмддин. Маънавий маснавий. -Т., 1999-2007.
7. Шомухамедов Ш.Форс-тожик адабиёти тарихидан ыисыача курс. - Т., 1992.
8. Шомухамедов Ш.Мумтоз форс адабиёти. -Т., 2001.
9. Шомухамедов Ш.Хазионалар жилоси. -Т., 1981
10. Энциклопедия персидско-таджикской прозы.-Душанбе, 1986.

Турк адабиёти

1. Алимбеков А. Турк адабиёти тарихи хрестоматияси. -Т., 1990.
2. Шабанов Ж. Турк адабиётидан намуналар. -Т., 1995.
3. Гарбузова В. Турк адабиёти классиклари. -Т., 1960.
4. Куприлузода М. Турк адабиёти тарихи. -Истанбул., 1991.
5. Ахмет Кабаклы. Турк адабиёти -Истанбул., 1991.